

## **Axborot-texnik ta'minot va aloqa departamenti to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **Umumiy qoidalar**

Axborot-texnika ta'minoti va aloqa departamenti (kelgusida - departament), zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishga javobgar hisoblanib, O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining fuktsional tarkibidir.

O'z faoliyatida Departament O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalari dalolatnomalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarga, Assotsiatsiya Nizomi, Assotsiatsiya Kengashi va ijroiya direktsiyasi, shuningdek mazkur nizomga amal qilinadi.

Departament o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bilan, shuningdek uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari, respublikamizning boshqa vazirlik va idoralarining tegishli bo'linmalari bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiradi.

Departament faoliyati O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-uslubiy hujjatlarga asosalangan holda olib boradi.

Departamentni Banklar Assotsiatsiyasi Bosh direktori buyrug'iga binoan tayinlangan va O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bilan kelishilgan holda departament direktori boshqaradi.

Departament xodimlari departament direktori tavsifi bo'yicha Banklar Assotsiatsiyasi Bosh direktori buyrug'iga binoan lavozimga tayinlanadi yoki ozod qilinadi.

#### **Departamentning asosiy vazifalari**

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatini O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasida amalga oshirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha tashkilotga oid dasturlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va saqlashni avtomatlashtirish;

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining barcha bo'linmalarining faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish jarayonlarini me'yoriy-huquqiy, texnologik va informatsion-analitik ta'minlash;

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi bo'linmalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish va foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan choralarini ishlab chiqish va tizimli tahlil majmuini amalga oshirish;

Internet tarmog'ida tashkilotning veb-resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash;

Tashkilotga oid axborot resurslarini va axborot tizimlarini himoyalash bo'yicha texnik infratuzilmani joriy qilish va rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bo'linmalari, respublikadagi boshqa vazirlik va tashkilotlarning tegishli bo'linmalari bilan yaqin hamkorlikda o'zaro faoliyatni tashkil qilish;

Axborotlarni mexanik va axborotlashtirilgan tarzda qayta ishlash, ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan injener, iqtisodiy va boshqa masalalarni echish uchun hisoblash texnikalari, kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimini yaratish, xizmat ko'rsatish, rivojlantirish va axborot ta'minlash tadbirlarini o'tkazish;

Assotsiatsiya bo'linmalari buyurtmalari asosida hisoblash ishlarini o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash rejalarini va grafiklarini ishlab chiqish;

UATS va kamquvvatli elektr tizim qurilmalarining samarali ishini muvofiq texnik talablar asosida ta'minlash;

Telefon liniyasi va qurilmalaridan foydalanishni tashkil etish va uzlusiz faoliyatini ta'minlash;

Analog aloqa liniyalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish.

### **Departament funksiyalari.**

Departamentning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

tashkilot tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun dasturiy va apparat vositalarini, aloqa va ma'lumot uzatish, hamda axborot xavfsizligini ta'minlash vositalarini qo'llash, foydalanish va rivojlantirish bo'yicha tashkilot rahbariyatiga takliflar tayyorlash va taqdim etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlarini, shu jumladan axborot tizimlari va resurslarini yaratish, dasturiy mahsulotlarni va interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish, kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish, joriy etish va rivojlantirish yuzasidan tashkilotning harajatlar smetasi va biznes-rejasidagi alohida moddalari bo'yicha takliflar va asoslar ishlab chiqish va taqdim etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish dasturlari va departamentning tashkilotga oid ish rejalarini ishlab chiqish o'rnatilgan va tartibda tasdiqlashga taqdim etish;

foydanilayotgan axborot texnologiyalarini, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun dasturiy va apparat vositalari, aloqa va ma'lumot uzatish, hamda axborot texnik xavfsizligini ta'minlash vositalariga tashkilot tizimida yagona standartlarni belgilovchi hujjatlarni ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga taqdim etish;

axborot-texnik vositalari, ma'lumotlarni himoyalash vositalari, dasturiy ta'minot, ish va xizmatlar xarid qilish bo'yicha tashkilotning boshqa infratuzilmaviy bo'linmalari va tashkilot tasarrufidagi tashkilotlar bilan birgalikda texnik iqtisodiy asoslar va talablarni ishlab chiqish;

tashkilotga oid va korporativ tarmoqlar, axborot – kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalarini, ma'lumotlar va axborotlarni qayta ishlash, saqlash va almashinish bo'yicha dasturiy-apparat vositalarini yaratish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini tashkil etish;

axborotlashtirish, davlat boshqaruvi organlari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida telekommunikatsion texnologiyalar, axborot resurslarini, ma'lumotlar bazasini, axborot tizimlarini va interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish sohasida O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini Davlat Qo'mitasining uning vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari ijrosini tashkil etish;

tashkilotning veb-resurslarini axborotlar bilan to'dirish, ularning tuzilmasi va tarkibini, hamda interaktiv xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash va o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini Davlat Qo'mitasiga kiritish;

tashkilotning boshqa bo'linmalar bilan hamkorlikda departament oldida turgan vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni yig'ish va qayta ishslash;

tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma'lumotlar bankini yaratish;

axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha samarali tizimni tashkil etish;

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasida axborot resurslarini, ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlari va interaktiv davlat xizmatlari, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha hisobotlarni yig'ish va o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasiga taqdim etish;

### **Huquqlari**

Yuklatilgan vazifa va funktsiyalarni amalga oshirish uchun Bo'linma quyidagi huquqlarga ega:

Bo'linmaning vazifa va funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining boshqa bo'linmalarini va quyi tashkilotlaridan o'rnatilgan tartibda talab qilish;

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining kengash majlislari, yig'ilishlari va boshqa tadbirlarida ishtirok etish;

O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi bosh direktori bilan kelishilgan holda yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining boshqa bo'linmalarini xodimlarini, hamda boshqa tashkilotlarning malakali mutaxassislari, ekspertlarini, jumladan shartnoma asosida jaib etish;

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi va boshqa tashkilotlarning tegishli bo'linmalarini belgilangan tartibda o'zaro faoliyatni tashkil qilish;

Rahbariyat topshirig'i asosida Bo'linma vakolatiga oid savollar yuzasidan davlat organlarida, respublika va xalqaro miqyosdagi tabdirlarda O'BA manfaatlarini ifodalash;

Departament faoliyatiga oid savollar bo'yicha me'yoriy xujjatlar loyihamonini, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohasida tashkilot ichki siyosatiga takomillashtirish bo'yicha tashkilot rahbariyatiga takliflar taqdim etish.

### **Departament faoliyatini tashkillashtirish**

Departament xodimlari soni amalga oshirilayotgan vazifalar hajmi va murakkabligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Departament faoliyati, har yilda departament tomonidan tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bilan kelishilgan holda rahbariyat tomonidan tasdiqlanuvchi, shakllantiriluvchi tashkilot dasturida nazarda tutilgan tadbirlar asosida tashkillashtiriladi.

Nizom va departamentning tashkilish tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bilan kelishilgan holda bosh direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Departamentni O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat Qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi Bosh direktori tomonidan tayinlanuvchi va chetlashtiriluvchi direktor tomonidan boshqariladi.

Departament direktori:

departament faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarning bajarilishiga mas'ul bo'ladi;

departament faoliyatini tashkillashtiradi, rejalashtiradi va nazorat qiladi, O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining boshqa bo'linmalari bilan o'zaro faoliyatni tashkil qiladi;

departamentda kadrlarni tanlab olish va joylashuvini ta'minlaydi, xodimlar o'tasida majburiyatlarni taqsimlaydi;

departament xodimlarining kasbiy daraja va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratadi.

departament xodimlari tasdiqlanuvchi taqsimlangan lavozim majburiyatlariga asosan o'ziga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishiga javobgardir.

departament xodimlari belgilangan tartib asosida departament raxbari taqdimi bo'yicha lavozimlarga tayinlanadi va chetlashtiriladi.

departament faoliyatining axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport ta'minoti, hamda xodimlarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi tuzilmaviy tashkilotlari uchun o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.